

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA SIFATLI VA SAMARALI TA'LIM BERISHNI ILGARI SURISH XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7881716>

A'zamova Zarnigor Farxodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

o'qituvchisi

Annotatsiya.

Maqolada Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, ehtiyojmand oilalarning farzandlarini, chin yetimlarni, og'ir kasallikka chalingan va nogironligi bo'lgan bolalarni davolash, ularning ta'lim olishini, uy-joy bilan ta'minlanishini hamda kasb egallashlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar.

imkoniyati cheklangan bolalar, sifatli va samarali ta'lim berish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ehtiyojmand oila, Davlat dasturi

Аннотация.

В статье указано, что выполнение задач, определенных в Государственной программе, а также лечение детей из малообеспеченных семей, фактических сирот, детей с тяжелыми заболеваниями и инвалидностью, их обучение, обеспечение жильем и занятостью рассматривается как обеспечение .

Ключевые слова.

дети с ограниченными возможностями здоровья, качественное и эффективное образование, поддержка молодежи, нуждающаяся семья, государственная программа.

Annotation.

In the article, it is stated that the implementation of the tasks defined in the State Program, as well as the treatment of children of needy families, true orphans, children with serious illnesses and disabilities, their education, housing, and occupation Support is considered

Key words.

children with disabilities, quality and effective education, youth support, family in need, State program

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash

va aholi salomatligini mustahkamlash yili"¹da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, ehtiyojmand oilalarning farzandlarini, chin yetimlarni, og'ir kasallikka chalingan va nogironligi bo'lgan bolalarni davolash, ularning ta'lim olishini, uy-joy bilan ta'minlanishini hamda kasb egallashlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etiladi.

Bu haqda davlatimiz rahbarining joriy yil 4 oktyabrda qabul qilingan "Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilab qo'yildi.

Mazkur qarorga ko'ra, og'ir vaziyatga tushgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga ijtimoiy va moddiy yordam ko'rsatish, bolalarning hayoti uchun xavf soluvchi og'ir, surunkali hamda kam uchraydigan (orfan) kasalliklarga o'z vaqtida tashxis qo'yish va ularni respublikada yoki zarur hollarda xorijiy davlatlarda davolash uchun tibbiy, ijtimoiy va moliyaviy yordam ko'rsatish, ehtiyojmand oilalarning farzandlari hamda imkoniyati cheklangan bolalarni bepul dori vositalari, tibbiy va protez-ortopedik buyumlar bilan ta'minlash, jismoniy yoki psixik rivojlanishida

nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim olishlarida ko'maklashish, shu jumladan, maxsus o'quv adabiyotlar va o'quv qurollari bilan ta'minlash va nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy moslashtirish, ularga qiziqishlaridan kelib chiqib kasb-hunar o'rgatish va ularni uy sharoitida o'zini o'zi band qilishi uchun asbob-uskunalar bilan ta'minlash, og'ir tashxisli kasalliklari bo'lgan bolalarni parvarish qilayotgan kam ta'minlangan oilalarni homiylikka olish Bolalar jamoat fondining eng muhim vazifalari etib belgilangandi.

Bolalar jamoat fondi uchun davlat byudjeti hisobidan 2021-2022 yillarda mablag'larni amalda o'zlashtirilishiga qarab 100 milliard so'm miqdoridagi beg'araz moliyaviy yordam ko'rsatilishi belgilangan.

Bugungi kunga qadar AKXda 5000dan ortiq jismonan va aqlan zaif bo'lgan bolalar (miya falaji, psixik va nutqida nuqsoni bo'lgan, turli darajadagi aqliy zaiflik, bolalar autizmi, Daun sindromi, giperfaollik, diqqat yetishmovchiligi, tajovuzkorlik, maktab tahsiliga tayyorgarlik muammolari) va huquqiy muammolari (oilaviy nizolar, shafqatsizlik va zo'ravonlik natijasida kelib chiqqan psixologik shikastlar) bo'lgan bolalar yordam oldilar.

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили"да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида"ги ПФ-6155-сон Фармони. Тошкент. 2021 йил 3 февраль.

AKXdagi mutaxassislar, maxsus pedagoglar, logopedlar, psixologlar, nevropatolog, terapiya mashqlari instruktorlari, massajchilar, surdopedagolar, san'at terapevtlari markazga keluvchi har bir jismoniy imkoniyatlari cheklangan va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola uchun shaxsiy dastur ishlab chiqadilar.

AKX mutaxassisslarining asosiy vazifasi quyidagi nuqtai nazarga asoslangan: bolalardagi reabilitatsion jarayon davomida ijobiy natijalarga erishish ota-onalar va davolovchi mutaxassislar o'z kuchlarini birlashtirib asosiy maqsadlari sari birgalikda harakat qilishlariga bog'liq. Ushbu muhim jarayon davomida ota-ona bolaning yonida bo'lishi, bola his-tuyg'ulari, orzulari va xavotirlari bilan yaqindan tanishishi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Sensor xonasi maxsus jihozlar bilan ta'minlangan bo'lib, ular maxsus yordamga muhtoj bolalarning ruhiy va jismoniy faolligida ijobiy o'zgarishlarga imkoniyat tug'diradi va yordamga muhtoj bolaning tashqi dunyo muhitiga, harakatlar va tovushlarga ko'nikma hosil qilishiga yordam beradi. Sensor xonasida olib boriladigan terapiya xizmati harakat-tayanch va asab tizimida muammosi bor bolalarda bezovtalik namoyon bo'lishining oldini oladi.

Jismoniy terapiya treyningi ekspertlari har bir bolaning tibbiy holatiga, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatiga asoslangan holda individual mashqlar dasturini ishlab chiqadilar. AKX barcha zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan bo'lib, harakat-tayanch tizimida nuqsoni bor bolalarning funksional sog'ayishiga yordam beradi. Lokomat innovatsion trenajerlari, Solostep jismoniy terapiya asboblari, Vertikalizatorlar bolalar muolajasining samaradorligini ta'minlaydi. Ilg'or usullar muhim natijalarga erishishga yordam beradi, shu jumladan bolaning birinchi qadami markaz mutaxassislari, ota-onalar va bolalarning mashaqqatli mehnatlari

samarasi bo'lib, barcha uchun orziqib kutilgan daqiqalardan biri hisoblanadi.

Qum terapiyasi xonasi bolalarga qumdonlarda rasm chizish, o'z ichki kechinmalarini turli xil shakllar va naqshlar orqali ifoda qilish imkoniyatini beradi.

Bolalarga shuningdek Montessori xonasi mutaxassislari ko'mak beradilar. Ushbu xona mutaxassisslarining faoliyati har bir davolanayotgan bola xususiyatlarining individual va noyobligini inobatga olgan holda olib boriladi. AKXda shuningdek bolalar rivojlanish dasturining ajralmas bo'lagi bo'lgan san'at va ertak terapiyasi xonalari faoliyat yuritadi.

Tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri bu har bir davolanishga keluvchi, maxsus yordamga muhtoj bolaning, o'z imkoniyatlarini oshirishiga turtki bo'luvchi kerakli ta'lim va maxsus terapiyani olishini ta'minlashdan iborat. Ayniqsa xozirda

xalq talimini rivojlantirishda inklyuziv talimni rivojlantirish aloxida extiyohlari bo'lgan bolalarga talim-tarbiya berish yanada takomillashtirish talim sifatini mustaxkamlash jarayoni olib borilmoqda²

Imkoniyati cheklangan bolalarga sifatli va samarali ta'lim berishni ilgari surish hayriya ishining muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi imkoniyati cheklangan bolalarni maktablariga joylashtirishda hamda maxsus yordamga muhtoj bolalarni o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashda ko'maklashadi.

Markazning birlamchi vazifalaridan biri ushbu chora-tadbirlarni O'zbekistonning viloyatlari bo'ylab o'tkazishdir. Bugungi kunga kelib Axborot-konsalting xizmatining xududiy bo'limlari Farg'ona hamda Samarqand viloyatlarida o'z faoliyatini yuritmoqda, yaqin orada esa Qarshida mazkur xizmat bo'limini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" gi PF-6155-son Farmoni. Toshkent. 2021 yil 3 fevral.

2. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. *Интернаука*, (7-2), 91-93.

3. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). The world in reforming the pension system use of existing pension system models in practice. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ* (pp. 50-51

4. Azamova, Z., & Tursunaliyeva, E. (2022). Reintegration of Persons Returning from Labor Migration and Their Employment. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 13, 122-126.

5. Tursunaliyeva, E., & Azamova, Z. (2022). Reintegration of Persons Returning from Labor Migration and Ensuring Their Employment. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 171-175.

² aloxida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida ПФ- 5712

6. A'ZAMOVA, Z. A. R. N. I. G. O. R., & FOZILOV, O. VOYAGA YETMAGAN BOLALARNI HUQUQ VA ERKINLIK LARI. ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 91-93.

7. Zarnigor, A. Z., & Nigora, T. (2023). Yosh oilalar bilan ijtimoiy ish. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 16, 68-70.

8. Аъзамова, З., & Турсуналиева, Э. (2022). РОЛЬ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЫ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 740-745.

9. Tursunaliyeva, E., Rohila, A., Nilufar, E., & Madina, T. (2023). MECHANISMS OF REHABILITATION AND TRAINING OF PERSONS WITH DISABILITIES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 343-346.

10. Tursunaliyeva, E., & Kubayeva, I. (2023). RISK FACTORS IN RELATIVE ATTITUDE TO CHILDREN. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 347-350.

11. Shahnoza, M., & Umida, D. (2023). SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(1), 140-143.

12. A'Zamova, Z., & Sharipova, K. (2022). YETIM VA OTA-ONA QARAMOG 'IDAN MAHRUM BO 'LGAN BOLALARNI MAKTABLARDA SIFATLI TA'LIM VA TARBIYA OLISHDAGI MUAMMOLARI. *Research Focus*, 1(2), 301-306.

13. Tursunaliyeva, E., & Sharofiddinova, R. (2023). MECHANISMS OF REHABILITATION AND TRAINING OF PERSONS WITH DISABILITIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 230-233.

14. A'Zamova, Z., & Sharipova, K. E'Zoxon Tursunaliyeva (2022). YETIM VA OTA-ONA QARAMOG 'IDAN MAHRUM BO 'LGAN BOLALARNI MAKTABLARDA SIFATLI TA'LIM VA TARBIYA OLISHDAGI MUAMMOLARI. *Research Focus*, 1(2), 301-306.

15. Tursunaliyeva, E., & Teshaboeva, N. (2023). Mechanisms of Rehabilitation and Training of the Disabled. *Texas Journal of Medical Science*, 18, 57-59.

16. Sultonova, N., & Tursunaliyeva, E. (2023). IJTIMOYIY ISH XODIMI FAOLIYATIDA MA'NAViyAT TUSHUNCHASINING DOLZARBLIGI. *Scientific progress*, 4(1), 330-333.